

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA
XALQ OG'ZAKI IJODINING TUTGAN AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Muminova Umida Qarshiyevna
TerDPI, Boshlang`ich ta`lim nazariyasi kafedrasi o`qituvchisi
Xoliyeva Sevara Rustam qizi
TerDPI, Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi talabasi
Eshpo`latova Maftuna
TerDPI, Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi talabasi

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, folklor, yozma adabiyot, marosim, mavsum, roviy, alla, nutq, ertak, boshlang'ich sinf.

Annotatsiya: ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot, xalq og'zaki ijodining janrlari, xalq og'zaki ijodidan namunalari, xalq og'zaki ijodining bolalar hayotida tutgan o'rni kabi masalalar yoritilgan.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi namunalari yozma adabiyotning maydonga kelishi va rivojlanishida boy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, badiiy adabiyot taraqqiyoti jamiyatning umumiyo rivoji bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu jihatdan Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarini eslash o'rinnlidir. XI asrning buyuk tilshunos olimi o'z kitobiga juda ko'p ma'lumotlarni jamlagan. Kitobda XI asr adabiyoti bilan birga, avvalgi zamonlarda paydo bo'lib, og'izdan og'izga avloddan avlodga ko'chirib yurgan maqolalar rivoyatlar, qo'shiq va lirik she'rlardan namunalari keltirilgan. Ayniqsa, mehnat, qahramonlik, marosim, mavsum qo'shiqlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Badiiy adabiyotning yuzaga kelish tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, ifodali o'qish tarixi ham shu qadar uzoq zamonlarga borib taqaladi. Mazmundor va ifodali nutq hamma davrlarda ham kishilarni o'ziga jalb etib ijtimoiy hayotda alohida o'rin egallab kelgan. Ifodali o'qish, avvalo, xalq san'atidir. Chunki badiiy adabiyot dastavval xalq og'zaki ijodi shaklida paydo bo'lgan. Xalq yaratgan asarlarning keng tarqalishida esa og'zaki ijrochilik san'ati muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'shiq, ertak, doston, qissa kabi og'zaki adabiyot namunalarini yaratgan xalq namoyandasasi (ertakchi, qissaxon, baxshi) bir paytning o'zida ham ijodkor, ham ijrochi edi.

Xalq og'zaki ijodi quyidagi janrlarga bo'linadi:

1. Doston
2. Qo'shiq
3. Maqol
4. Matal
5. Topishmoq
6. Afsona
7. Tez aytish
8. Askiya
9. Rivoyat
10. Asotir
11. Ertak
12. Latifa
13. Lof

14. Alla

15. Lapar

Binobarin, asrlar davomida yaratilgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, qo'shiq va dostonlar, og'zaki ijrochilik, ifodali nutq san'ati tufayligina bizgacha yetib keldi. Xalq yaratgan asarlar qanchalik donishmandlik va san'atkorlik mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, ularning og'zaki ijrochiligi ham shu qadar mahorat va san'atkorlikni talab qilgan. Qadim tariximizda yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, inson qalbidagi g'amanduh, shodlik va quvonch tuyg'ularining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan jamiki adabiyot namunalarini xalq san'atkorlari (qo'shiqchi, roviy, qissaxon, baxshi) shunchaki jo'n, badiiy tasvir vositalarisiz, xilma-xil ovoz tovlanishlarisiz, shukuhsiz bir tarzda ijro etganlarida edi, ehtimol bu asarlar uzoq saqlanib qolmagan bo'lar edi.

Barchamizga ma'lumki, bolalar nutqining rivojlanishida aynan xalq og'zaki ijodi ustun turadi. Chunki chaqoloq tug'ilganidan keyin eng avvalambor xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan allani tinglab voyaga yetadi. Ayni mana shu alla tufayli barcha insoniy fazilatlar bola ongiga singgadi. Mana shu birgina allani tinglab bolaning tili chiqadi.

Alla

Yot, bolam, uxla qo'zim,

Uylarda o'chdi chiroq.

Uxlar asalarilar,

Uxlar baliqlar tinchroq.

Ko'kda oy yarqiraydi,

Derazadan qaraydi.

Ko'zlarining yumgin, qo'zim,

Yot, quvonchim, qunduzim!

Alla, alla

Ertaklar eshitib tarbiyalanadi. Keyinchalik nutqi rivojlanadi. So'nggi davrda bolalar she'riyatida ona-Vatan, go'zal diyor, hur o'lkamiz to'g'risida yaratilgan asarlari katta ahamiyat kasb etadi.

Shuni e'tiboriga olish lozimki, bolalar mакtabga borishda oldin xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan qo'shiqlarni aytib katta bo'lishadi. Ayni mana shu qo'shiqlar bolalar nutqini rivojida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. T:"Barkamol fayz media" 2018
2. Davlatmamatovna H.G., Karshievna M.U. STUDYING THE SOCIAL, EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF SCIENTIFIC AND POPULAR ARTICLES IN PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS // Open Access Repository. - 2023. -T.4. - N. 03. - C. 46-52.
3. Davlatmamatovna H.G., Qarshievna M. U. Popular Scientific Texts in Elementary School Textbooks and Methods of their Study // Web of Semantic: Universal Journal on Innovative education. - 2023. - T. 2. - N. 4.- C. 125-128.
4. Hamidova M. Bolalar adabiyoti. Namangan 2017

VOLUME-1, ISSUE-6

5. Ochildeva G., Karshievna M. U. METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROCESS. - 2023.

6. Qarshiyevna, Umida Muminova. "Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni.

7. U. Muminova THE METHODOLOGY OF DESIGNING THE RANGE OF SHOULDER PRODUCTS FOR CHILDREN WITH IMPAIRED POSTURE // SAI. 2022. N.A8.

8. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. T: "O'qituvchi" 2004

